



**BOSHLANG'ICH TALIM JARAYONIDA O'QUVCHILARDA SOGLOM
TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM SHAKLI**

A.Ziyaev

Qo'qon DPI BTM kafedrasi dotsenti

Nabieva Mukambar

BTM ta'lism yo'nalishi 04/22 guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich talim jarayonida o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mehnat tarbiyasining o'rni va ahamiyati, bu boradagi amalga oshiriladigan ta'lism tarbiyaviy ishlarmazmuni, bu boradagi ayrim uslubiy tavsiyalar berilgan va ularning mohiyati ochib berilgan.

Mehnat tarbiyasi yosh avlodni har tomonlama kamol topish omili sifatida har doim dolzarb masala sifatida qarab kelinadi.

Zero, insoniyat hayotida yaratgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar mehnat tufaylidir. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotida mehnat tarbiyasining o'rni va ahamiyatini tadqiq etish zamonaviy pedagogika fanining muhim masalalaridan hisoblanadi. Biz ilgari surayotgan tadqiqot muammosi yosh avlodda sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mehnat tarbiyasining o'rni va ahamiyati, bu boradagi amalga oshiriladigan ta'lism tarbiyaviy ishlar yechimlari, ayrim tavsiyalarni tavsiya etishdan iborat. barkamol shaxs tarbiyasining muhim jihatidir. Shaxs takomillashuvi jarayonida insonning o'zi haqidagi tasavvuri ham uning faoliyati natijalari jamoadagi holati, jamiyatning unga bo'lgan talablari bilin bog'liq ravishda uzluksiz o'zgarib boradi. Bunda sog'lom turmush tarzi shakllantirilishi shaxs tarbiyalanganligi darajasi ko'rsatkichlaridan bo'lib, o'z-o'zini xolisona baholashga da'vat qiladi. Agar shaxs, o'smir o'z-o'zini xolis baxolay olsa tarbiya o'z-o'zini tarbiyalashga aylanadi, pedagog ta'sir va talablar yuqori darajada qabul qilinadi hamda shaxsda ijobiy tuyg'ular, ya'ni o'zlikni anglash tuyg'ulari yuzaga keladi. O'quvchilarda o'zini bilishi, boshqarishi va o'z-o'zini baholashni va yuksak ma'naviy tuyg'ularni shakllantirish o'quvchilarni sog'lom turmush tarziga o'rgatishni uzviy olib borish murakkab tarbiyaviy jarayondir. O'zlikni anglash insonni o'z bilimlari, ma'naviy qiyofasi va qiziqishlari, ideallari va ahloq motivlarini anglash, baholashga o'rgatishda allbatta o'quvchi yashayotgan muhit, oila, mahalla va muktab, turmush tarzi alohida ahamiyatga egaligini ifodalaydi va muhim tarbiyaviy omillar sifatida qarash imkonini beradi.

Har tomonlama yetuk barkamol shaxsni shakllantirish ta'lism tarbiya ishlarimizning pirovard maqsadi bo'lib, uni ro'yobga chiqarish avvalo sog'lom turmush tarziga o'rgatishni taqozo etadi. Turmush tarzi sog'lomligi inson ma'naviy hayoti go'zalligi bilan ko'proq mmazmunga ega bo'ladi, chunki u qanchalik sog'lom

"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



bo'lmasin jamiyatda munosib faoliyat olib bormasa ,ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalanmagan bo'lsa uning turmush tarzini sog'lom deb bo'lmaydi.Hayotga teran munosabat,avvalo shaxsning olgan ijtimoiy tarbiyasi mazmuni qanchalik boy ekanligi bilan ahamiyatlidir.Yosh avlodda sog'lom turmush tarzini erta shakllantirishga kirishish samarali natijalar omiliekanligi ma'lum. Boshlang'ich sinflardan boshlab mehnat tarbiyasini mehnat ta'limi bilan bog'liq holda tashkil etiltsht maqsadga muvofiq. Bu davrdagi o'quvchilar mehnat faoliyati o'quv mehnati va maishiy mehnatdan iborat bo'lib, ularda sog'lom turmush tarziga o'rgatishda alohida mas'uliyatli davr hisolanadi.

Texnologiya darslarida o'quvchilarga ijtimoiy foydali mehnat haqida bilim, dastlabki ko'nikmalar berish barobarida tarbiyaviy vazifalar ham amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida sog'lom turmush haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilishda mehnat darslari imkoniyatlari mehnat,uning turlari,egalash zaruriyati, ularning kishilik jamiyatni va shaxs hayotidagi o'rni haqida ma'lumotlar berish,shuningdek o'quvchilarning mehnat tarbisini ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari bilan bog'liq holda tashkil etish va olib borish o'ziga xos samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Ayniqsa, estetik tarbiya bilan bog'lash orqali o'quvchilarda mehnat tarbiyasining sog'lom turmush kechirishga bo'lgan zavq va shavqlarini orttirib jamiyatdagi nosog'lom ko'rinishlarga nisbatan qahr g'azab uyg'otadi. Estetik his tuyg'u shaxsning voqelikka,tabiat va jamiyat hayotidagi ishtiroki,faoliyati jarayonida uning bilimi,ehtiyoji kabilardan kelib chiquvchi munosabati deb qarash mumkin. Shaxs kamolatida estetik tarbiya alohida ahamiyatga ega, chunki shaxs olam go'zalliklarini anglamasdan, u haqida chuqr mulohaza,fikr yuritmasdan faoliyatga,turmushga go'zallik baxsh eta olmaydi.

Boshlang'ich sinf texnologiya darslari jarayonida o'quvchilarda katta avlodning mehnat tajribalarini yosh avlodga o'rgatishda estetik yondashuv ularda mehnat,kasblar haqida tushuncha,bilim,ko'nikmalarga ega bo'lish bilan birga shaxsiy faoliyatda ijodiy yondashish,faoliyatning ijtimoiy mohiyatini istiqlol g'oyalari asosida tushunish,mehnat natijalari va mehnat ahlini qadrlash,yaratuvchanlik kabi sifatlarga ega bo'lish bilan birga o'zini ham har tomonlama rivojlantirib boradi. Texnologik ta'lim jarayonida o'quvchilarda bilim ko'nikmalar o'quvchida o'z mehnat faoliyatini to'g'ri anglash,mehnat layoqat va qobiliyatlarini o'sishi imkoniyatlari ortadi. O'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga oid quydagi tavsiyalar o'rnlidir:

Texnologiya darslari mavzulari tarbiyaiy jihatlarini yoritish rejalashtirilishida sog'lom turmush tarzini shakllantirishga e'tibor qaratish;

Mehnat qurollari va vositalari hamda materiallar bilan ishlashda, o'z o'ziga xizmatni yo'lga qo'yishda qo'yiladigan gigienik talablar ham o'quvchilarda nafosatlilikni shakllanishiga yo'naltirilishi; O'qitishning texnik hamda tabiiy,tasviriy



namoyishlari,o'quv ustaxonasi jihozlanishi, u yerda o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilishi;

Texnologik ta'lif bo'yicha to'garaklar tashkil etish;

Texnologiya darslari ta'lif tamoyillari asosida tashkil etilishi va olib borilishi;

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar berish;

Mashg'ulotlarda ta'lifning zamonaviy metodlaridan samarali foydalanishi;

O'qitishning ko'rgazmali metodlarini o'rinni qo'llash ,amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarni faolligiga erishish orqali tartiblilikka o'rgatish,sog'lom turmush ko'nikmalarini shakllantirish kabilar.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki,hayotimiz farovonligi yosh avlodning sog'lom turmush tarziga amal qilishiga,zamonaviy ta'lif asosida bilim,ko'nikma,malakalar bilan qurollanishiga,xususan mehnat ta'lmini ham zamonaviy asosda tashkil etilishiga ko'p jihatdan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.B.Djumaev "Uzluksiz ta'lif tizimida yoshlarni jismoniy faoliyk va sog'lom turmush tarziga o'rgatish" "Uzluksiz ta'lif" 2016 yil №3
2. D.D.Sharipova va boshqalar "Valeologiya asoslari"o'quv qo'llanma T 2007 y.
3. M.M.Iسابoeva "Sinfdan tashqi ishlarda sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish masalalari""Ta'lif va texnologiya" T 2016 y.
4. Sh, Abduraximov. "ISSUES OF FORMATION OF THE CENTER FOR MASTERING FOREIGN EDUCATIONAL PROGRAMS THAT FORM CIVIL EDUCATION IN STUDENTS IN THE SYSTEM OF PRIMARY EDUCATION IN UZBEKISTAN." International Journal of Early Childhood Special Education 14.7 (2022).
5. Ziyayev, A. N. "PRIMARY EDUCATION AND AESTHETIC SENSE TRAINING." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 62-64.
6. Ziyayev, A. N. "PRIMARY EDUCATION AND AESTHETIC SENSE TRAINING." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 62-64.
7. Ziyayev, A. N. "PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE USE OF EDUCATIONAL VALUES IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF STUDENTS." INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876 16.06 (2022): 86-88.